



**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA INTEGRATIV-
MODULLI YONDASHUV ASOSIDA "50810101-QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH VA SERVISI TEXNIK
TEKNOLOGI" KASBI O'QUVCHILARNING UMUMIY TEXNIK
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK
TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

Amanova M.A.

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Professional ta'limni rivojlantirish instituti*

Tayanch so'zlar: integrativ-modulli, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, servisi texnik-texnologiy, malaka talabi, o'quv reja va o'quv dasturi, nazariy va amaliy bilimlar, mashina-traktor agregatlar, texnik xizmat ko'rsatishi, ta'mirlash, o'quv amaliyotida o'zlashtirilgan ko'nikmalari, ishlab chiqarish amaliyoti kompetensiyalar.

Ключевые слова: интегративно-модульный, сельскохозяйственная механизация, наладчик, квалификационные требования, учебная программа и учебная программа, теоретические и практические знания, машинно-тракторные агрегаты, обслуживание, ремонт, навыки обучения, приобретенные в учебной практике, компетенции в производственной практике.

Key words: integrative-modular, agricultural mechanization, service technician, qualification requirements, curriculum and curriculum, theoretical and practical knowledge, machine-tractor units, maintenance, repair, training skills acquired in training practice, competences in production practice.

Professional ta'lim o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish, uning sifat va samaradorligini oshirish, malakali, raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish vazifalaridandir.

Integratsiyalangan modullarni talabalarga tushunarli va kizik bulishi uchun bayon kilishning kiyinligi shundaki, bu omilni bartaraf etishning yullari amaliyotda tekshirilgan eng ma'kul uslublarni ishlab chikishda xamda muxandislar tayyorlashning maxsus tizimidadir.



Integrativ modulli yondoshuv asosida tayyorgarlikka ta'sir etuvchi omillar o'quvchilar o'rtasida fikrlash ijodkorligini, qaror kabul qilishda moslashuvchanlikni va yangi nostandart yechimlarni topish kobiliyati dizayn tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Professional ta'lim yo'nalishlari biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni innovatsion tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan xamda ilmiy - innovatsion texnologiyalar asosida utish zaruriyatini keltirib chikardi. Chunki, dars ta'lim - tarbiya berishning asosiy o'zagidir. Talabalar modullarni o'rganish davomida davomida uning bilimi mustaxkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Fanlar bo'yicha beriladigan ta'lim -tarbiya hayot qonuniyatlari, tabiat dialektikasi, davr talabi asosida talabalarga yetkazilsa, xar bir o'qituvchi uz vazifasini sidqidildan bajargan bo'ladi.

Fanlararo integrativ modduli yondoshuvchga ta'sirni amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratamiz:

- ta'lim ixtisoslik yunalishiga mos bo'lgan ishlab chiqarish ob'ektlarini tanlash;
- ishlab chiqarish sube'kti va ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltirish yo'llarini izlash;
- ta'lim muassasasi va ishlab chikarish sube'kti o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash.

Fanlararo ata'lim jarayoni elementlari (shakl, mazmun, metod va vositalari) ni bir butun tizimga birlashtirishga ya'ni integratsiyalashga xizmat kiladi. Shuni aloxida ta'kidlab o'tish kerakki, fanlararo integratsiya ta'lim sifati va samaradorligini amalga oshirishning eng muxim omillaridan biridir.

Fanlararo integratsiyani amalga oshirish uchun:

- o'quv fanlarini o'rganishda shunday ketma-ketlikni tanlash lozimki, bir fanni o'rganish ikkinchi fanni o'rganishga ko'maklashsin;
- fanlardagi umumiy bulgan tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda bir xil yondashuvdan foydalanish;
- fanlarni o'rganishda ko'nikma va malakalar xosil kilishga bo'lgan talablar birligini ta'minlash;
- bitta fanga doir, ko'nikma va malakalarni o'rganishda boshqa fanlardan egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan keng foydalanish.

Integrativ modul ishlab chiqishda mobaynida bir - biriga bogliqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarniig ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Amaliy integratsiyada axamiyatga molik bo'lgan jarayonlar asosida texnik maxsulotlarni yaratish nazarda tutiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, kelajak avlodni barkamol shaxs, raqobatbardosh kadrlar darajasida tarbiyalashga



juda katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizning kelajagi esa hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlarimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son farmoni, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbir etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilib kelmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida:

2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinlarda - Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan mutloqa yangi kasb-hunar muassasalari tashkil etildi.

Qishloq va suv xo'jaligi sohasida ham bir qator zamonaviy texnika-texnologiyalarning xorijiy mamlakatlardan kirib kelishi va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgani buning yaqqol misolidir. Shuni inobatga olib, zamonaviy qishloq xo'jaligi mashinalarini boshqaradigan va servis xizmat ko'rsata oladigan malakali kichik mutaxassislarni yetishtirib chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida Qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi 50810101-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va servisi texnik-texnologiy mutaxassisligi mutaxassisli bo'yicha tayyorlanayotgan malaka talabi, o'quv reja va o'quv dasturi asosida nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash,



turli rusumdagi mashina-traktor agregatlarini bajaradigan ishiga qarab tuzish va ishlatishi, hamda texnik xizmat ko'rsatishi va ta'mirlashi ishlarini maxsus fanlardan egallagan nazariy bilimlarni va o'quv amaliyotida o'zlashtirilgan ko'nikmalarni ishlab chiqarish amaliyoti kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan.

Professional ta'lim o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish, uning sifat va samaradorligini oshirish, malakali, raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish vazifalaridandir.

Hozirda rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olayotgan mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va ta'lim mazmunini modernizatsiyalash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim tizimini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim yo'nalishidagi ilg'or tajribalari o'rganilib, mutaxassislarning bu boradagi malakasi oshirilmogda.

Professional ta'lim muassasalarida o'quv-amaliy mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirish maxsus fan o'qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta'lim ustalarining pedagogik mahoratiga, ularning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Ishlab chiqarish ta'lim ustalari yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini chuqur bilishi hamda foydalana olishi, yangilik yaratish darajasiga ega bo'lishi juda muhim. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan o'qitishning texnik vositalarni tadbiiq qila olishi, o'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlashga undash, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ba'zi amaliy mashg'ulotlar intellektual ko'nikmalarni egallashga qaratilgan. Masalan, matematika yoki fizika fanidan misol va masalalar yechish, chizmachilikdan mashqlar bajarish, hisob-kitob qilish va hokazo. Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlar va o'quv amaliyotlarini o'tishda o'quvchilar ishlab chiqarishda bajariladigan jarayonlar bo'yicha puxta kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishi lozim. Buning uchun amaliy mashg'ulotlar shakl nuqtai nazaridan to'g'ri tashkil qilingan bo'lishi kerak.

Amaliy ta'lim turlari

Professional ta'lim muassasalarida amaliy ta'lim jarayoni quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Laboratoriya-amaliy mashg'ulot
2. Amaliy mashg'ulotlar
3. O'quv amaliyoti
4. Ishlab chiqarish amaliyoti
5. Diplom oldi amaliyoti



Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlari nazariy darslarda o'rganilgan modda va jismlarning xususiyatlarini, mashina va mexanizmlarning tuzilishi, ishlash tartibi hamda xususiyatlarini o'rganish maqsadida amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar nazariy darslarda o'rganilgan mavzular bo'yicha ish qurollari va vositalaridan foydalanib, modda hamda jismlarni qo'llab, amaliy ish usul va jarayonlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

O'quv amaliyoti bitta umumkasbiy yoki kasbiy fandagi nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash, ish usuli va operatsiyalarini amaliy bajarib o'rganish bo'yicha ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, o'qituvchi nazorati ostida o'quv ustaxona, laboratoriya va o'quv mashq maydonlarida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari bir necha kasbiy fanlarda o'rganilgan nazariy bilimlar asosida kasb yoki ixtisosliklar, ish, usul hamda operatsiyalarini jamlagan holda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarda amaliy bajarish bo'yicha ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazishning muhim xususiyatlari

O'quv va amaliy mashg'ulotlar professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning nazariy fanlardan olgan bilimlariga asoslangan holda, ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Amaliy-kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari:

- ta'lim muassasasining o'quv ustaxonalarida tashkil etish;
- laboratoriyalarda tashkil etish;
- o'quv mashq maydonida tashkil etish;
- trenajyorlarda tashkil etish;
- o'quv sexlarida tashkil etish;
- tayanch korxonalar sexlarida tashkil etish;
- ajratilgan (shtatli) ishchi joylarda tashkil etish;
- ishlab chiqarish sharoitida tashkil etish.

O'quvchilarning **amaliy kasbiy ta'lim jarayonida** egallashlari lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar quyidagi **metodlar** asosida shakllantiriladi:

- og'zaki (tushuntirish, suhbat va hokozolar);
- ko'rgazmali (mehnat usullari, ko'rgazmali qurollarni namoyish etish, ekran vositalaridan foydalanish, o'quvchilarning kuzatishlari va hokazo);
- amaliy (mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlari, ishlab chiqarish-texnika vazifalarini hal etish);



- bilimlar, mehnat ko'nikmalarini, malakalarini tekshirish va faol izlash hamda boshqa usullarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti maqsadi va vazifalari.

Maqsad:

G'ildirakli va zanjirli traktorlar, o'ziyurar mashinalarining ish bajarish jarayonida va ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda o'ziyurar va agregatlangan mashinalar asosida mashina traktor agregatlari (keyingi o'rinlarda MTA deb yuritiladi) bo'yicha qishloq xo'jalik mexanizatsiyalashgan ishlarini bajarib, MTAni va chilangarlik asboblari va moslamalarning ish qobiliyatini ta'minlash;

Texnologik jarayonlarni o'z vaqtida sifatli bajarishini tashkil etish ishlarini ishlab chiqarish amaliyoti davrida yuqori malakali traktorchi-mashinist rahbarligida amalga oshirib kasbiy bilim va ko'nikmalarni kasbiy amaliy tajribani shakllantirish;

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Bajarilgan ish sifatini nazorat qilishga, xavfsiz ish usullari va texnikasini qo'llashga, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilishga o'rgatish.

Vazifa:

Kasbiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini ta'minlash;

Yuqori malakali traktorchi-mashinist yordamida tuproqqa asosiy va ekishdan oldin ishlov berish, o'g'itlash, ekinlarni ekishga tayyorlash va ekish, ekilgan ekinlarni parvarish qilish, paxta va g'alla hosilini yig'ib-terib olish hamda yem-xashak uchun MTA da mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda kasbiy amaliy tajribani rivojlantirish;

Atrof-muhitni muhofaza qilish va qishloq xo'jalik sohasidagi agrotexnik talablarga, yo'l harakati qoidalari va yo'l harakati xavfsizligi talablariga rioya qilish;

Yuqori malakali traktorchi-mashinist yordamida MTA texnologik sozlash ishlarini bajarish, oddiy va o'rta murakkablikdagi nosozliklarni bartaraf etish;

Nosoz agregatlarni qismlarga ajratish, yig'ish va rostlash;

Alohida montaj birliklarini almashtirish, agregatlangan qishloq xo'jalik mashinalari, traktorlar va o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish;

Bajarilgan ishning sifatini nazorat qilish. Ish joyini oqilona tashkil yetish. Butun ish doirasini bajarish uchun xavfsiz usul va metodlarni o'zlashtirish.

Natija:

Olingan bilim va ko'nikmalarni muayyan qishloq xo'jaligi tashkilotining ishlab chiqarish sharoitida qo'llaydi;



G'ildirakli va zanjirli traktorlar, o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalari asosida tuzilgan MTA mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik ishlarini va yem-xashak tayyorlash ishlarini bajaradi;

Bajarilgan ishlarni agrotexnik talablarga mosligini o'rganadi;

Yo'l harakati qoidalari va yo'l harakati xavfsizligi talablariga rioya qiladi.

MTAni texnologik sozlash ishlarini bajarish, oddiy va o'rta murakkablikdagi nosozliklarni bartaraf etish, nosoz agregatlarni qismlarga ajratish, yig'ish va rostlash, alohida montaj birliklarini almashtirish, agregatlangan qishloq xo'jalik mashinalari, traktorlar va o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni o'rganadi.

Bajarilgan ish sifatini nazorat qiladi, ish joyini samarali tashkil etadi, xavfsiz ish usullari va texnikasini qo'llaydi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga mos qilishini o'rganadi.

Ishlab chiqarish amaliyotida o'quvchi quyidagi kompetensiyaga ega bo'ladi:

Amaliy mashg'ulotlar natijasida o'quvchilar quyidagi amaliy ko'nikmalarga, kasbiy amaliy tajribaga va kasbiy vakolatlariga ega bo'lishlari kerak:

Qishloq xo'jalik texnikalarini sozlash ishlarini bajarishda chilangarlik asboblari yordamida qismlarga ajratish, yig'ish va ta'mirlash:

KK-1.1. Chilangarlik asboblardan qishloq xo'jalik mashina, agregat va yig'ma birikmalarni, butlovchi qismlari va mexanizmlarini yechish ishlarini bajarish;

KK- 1.2. Chilangarlik asboblardan qishloq xo'jalik mashina, agregat va yig'ma birikmalarni, butlovchi qismlari va mexanizmlarini yig'ish ishlarini bajarish;

KK-1.3. Chilangarlik asboblardan qishloq xo'jalik mashina, agregat va yig'ma birikmalarni, butlovchi qismlari va mexanizmlarini texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish.

MTA mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik ishlarini bajarish.:

KK- 2.1. G'ildirakli va zanjirli traktorlar, o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalari asosida tuzilgan MTA mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik ishlarini bajaradi.

KK- 2.2. O'rish kombayni bilan g'alla o'rish paxta terish ishlarini bajaradi.

KK- 2.2. MTA bilan chorvachilik uchun yem- xashak tayyorlash ishlarini bajaradi

KK-2.3. Traktor tirkamasida qishloq xo'jalik yuklarini tashish ishlarini bajaradi

Qishloq xo'jalik texnikalarini mavsumdan so'ng MTAni saqlashga qo'yish va mavsum oldida saqlashdan olish hamda ishga tayyorlash ishlari:

KK- 3.1. Qishloq xo'jalik mashinalari, agregat va mexanizmlarini mavsumdan so'ng saqlashga qo'yish ishlarini amalga oshirish.



КК- 3.2. Qishloq xo‘jalik mashinalari , agregat va mexanizmlarini mavsum oldidan saqlashdan olish ishlarini amalga oshirish.

КК- 3.3. Qishloq xo‘jalik mashinalari , agregat va mexanizmlaridan mavsum oldidan МТА tuzish ishlarini amalga oshirish.

Ishlab chiqarish amaliyotini rejalashtirish.

Ishlab chiqarish amaliyoti mashg‘ulotlari har bir professional modul uchun amaliy va nazariy mashg‘ulotlar tugagandan so‘ng rejalashtiriladi.

O‘quv yili boshlanishida ishlab chiqarish ta‘limi bo‘yicha direktor o‘rinbosari “O‘quv jarayoni jadvali” bilan ishlab chiqarish amaliyoti o‘tkazish muddatlari jadvalini birinchi pedagogik kengashda tasdiqlatadi. Ishlab chiqarish amaliyoti qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish, parvarish qilish va yig‘ib olish mavsumlariga qarab rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish. Amaliy mashg‘ulot to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish joyida, agrosanoat ishlab chiqarish sharoitida o‘tkaziladi, uning davomida bitiruvchi *ishlab chiqarishdan biriktirilgan yuqori malakali traktorchi-mshinistga stajor* bo‘lib mustaqil ishlashi kerak, ishlab chiqarish ta‘limi ustasi tomonidan tizimli monitoring olib boriladi.

Malaka talablari bo‘yicha, ishlab chiqarish amaliyoti dasturi asosida, o‘qituvchi maslahatlariga tayanib, ta‘lim oluvchi quyidagi faoliyat turlariga tayyorlanadi: qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlatish(foydalanish) va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, traktor va o‘zi yurar qishloq xo‘jalik mashinalarida barchi turdagi qishloq xo‘jalik ishlarini bajarishda foydalaniladigan texnikalarni asosiy yuqori malakali traktorchi-mshinistga stajor (“**yordamchi**”) bo‘lib MTAni boshqarish. Qishloq xo‘jalik ekinlariga yer tayyorlash va ekish, ekinlarni parvarish qilish, qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini yig‘ib-terib olish ishlarida hamda chorvachilik uchun yem- xashak ekish, ishlov berish, saqlash va qayta ishlash mashina va uskunalardan foydalanib amalga oshiradi.

Bu jarayonlar tuman mashina - traktor parklari (MTP)da, qishloq xo‘jalik klasterlarida, fermer xo‘jaliklarida, chorvachilik fermalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalalarida va ustaxonalarda amalga oshiriladi.

O‘quv yili boshlanishidan oldin professional ta‘lim muassasasi direktorining ishlab chiqarish ta‘limi bo‘yicha o‘rinbosari, maxsus fanlar kafedrasini mudiri, maxsus fan o‘qituvchisi va ishlab chiqarish ta‘limi ustasi bilan agrosanoat ishlab chiqarish korxonalariga chiqishlari va quyidagilarga etibor qaratishlari lozim:

- ishlab chiqarish amaliyotini yuqori darajada o‘tkazish uchun amaliyot bazasining material texnika ta‘minotiga;
- mehnatni tashkil qilinganligiga;
- zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta‘minlanganligiga;
- ilg‘or intensiv texnologiyalardan foydalanishlariga;

- o‘quvchilar uchun kerakli sharoitlar mavjudligiga;
- o‘quvchilarni ish joyi bilan ta’minlay olishiga;
- o‘quvchilarni ma’lum qismini ish haqi to‘lanadigan ish joyi bilan ta’minlay olishiga.

Agrosanoat ishlab chiqarish korxonasi rahbari bilan amaliyot muddati, o‘quvchilarga rahbar biriktirilishi va boshqa tashkiliy masalalar haqida kelishiladi.

Har bir amaliyot bazasiga 5-8 nafar o‘quvchi yuborishni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash. O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari og‘zaki, savol-javob, amaliy topshiriqlarni bajarishdan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

Baholash (sertifikatlashtirish) shakllari (amaliy mashg‘ulot natijalari asosida) Ishlab chiqarish amaliyotini sertifikatlash shakli amaliy malakaviy ish bo‘lib, uning natijalari ishlab chiqarish amaliyotining ilova kundaligi va korxonada tashkilotida amaliyot o‘tash haqidagi buyruq nusxasi bilan bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotda hujjatlashtiriladi.

Professional ta’lim muassasalarida Integratsiyaviy bilimlarni ozida mujassam etgan o‘quv-amaliy mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirish maxsus fan o‘qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta’lim ustalarining pedagogik mahoratiga, ularning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Ishlab chiqarish ta’lim ustalari yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini chuqur bilishi hamda foydalana olishi, yangilik yaratish darajasiga ega bo‘lishi juda muhim. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan o‘qitishning texnik vositalarni tadbiiq qila olishi, o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil ishlashga undash, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir

O‘quvchilarda integratsiyalashgan bilimlardan oladigan ularni o‘z ustida yanada ko‘prok fanlararo integratsiyaviy bilimlardan foydalanib ilmiy ijodiy izlanishga yo‘naltira oladigan qiziqarli samarali usullardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
2. Sh.M. Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.



3. M.Shoumarova, T. Abdullaev. Qishloq xo'jaligi mashinalari. T.- «Fan va texnologiya»-2017
4. M.Shoumarova, T. Abdullaev. "Qishloq xo'jaligi texnikalarining tuzilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatish" Noshir- 2017
5. M.Shoumarova, T. Abdullaev. "Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashtirilgan ishlar texnologiyasi" Cho'lpon -2017
6. M.Meliboev "Qishloq xo'jalik mashinalari va chorvachilik jihozlari" O'qituvchi -2016
7. A.Obidov va boshqalar. "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish" T-"O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati"-2018
8. N. Bekmurotova "Chilangarlik ishlari" Toshkent "Mehnat" 2002.
9. A. A. Riskulov, X. I. Jalilov. "Metallar texnologiyasi." T . "Cho'lpon" 2009.
10. M.Toshboltaev, R. Rustamov." Qishloq xo'jalik mashinalariga hududiy firmaviy texnik servis ko'rsatish tizimini takomillashtirishning nazariy- statistik tamoyillari". T.-«Fan va texnologiya»-2018
11. M.Toshboltaev O'zbekiston qishloq xo'jaligida mashina-tractor agregatlaridan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari". T.-«Fan va texnologiya»-2016
12. E.Pulatov, F. Temirgaliev, A.Balqiboev Kasb hunar kollejlari amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish. Metodik tavsiya. Toshkent 2018 yil.

Internet saytlari:

<http://www.ziyonet.uz/technics>

<http://www.ref.uz> <http://www.tsau.uz>

<http://www.timi.uz> <http://www.ref.uz>

www.avtomash.ru

<http://www.google.ru/search>

<http://www.yandex.ru/search>

РЕЗЮМЕ

Professional ta'lim tizimida amaliy mashg'ulotlarining turlari, mashg'ulotlarni samarali o'tkazishning muhim xususiyatlari haqida. Qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi 50810101-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va servisi texnik-texnologiy mutaxassisligiga ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishni tashkil etish va o'quvchilarning malakalarini shakllantirish, integrativ-modulli yondashuv asosida o'quvchilarning umumiy texnik tayyorgarligini rivojlantirish, metodik ta'minotini takomillashtirish jarayonini tashkil etish.

РЕЗЮМЕ

О видах практики в системе профессионального образования, важных особенностях эффективного обучения. 50810101-Специалист технико-технологической службы сельскохозяйственной механизации в области организации процессов совершенствования снабжения сельского и водного хозяйства.

SUMMARY

About the types of practical training in the professional education system, the important features of effective training. 50810101-Agricultural mechanization and service technical-technological specialist in the field of agriculture and water management. organization of the process of improvement of supply.